

**TEXNLOGIYA FANI DOIRASDA O`QUVCHLARDA MEHNATSEVARLIK VA
IQTISODIY TEJAMKORLIK KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.**

Umarova Fotima Abduraximovna

Ilmiy raxbar: v.b. dotsent, p.f.f.d., PhD

(Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta'lim metodikasi kafedrası)

To`xtasinova Shodiyaxon Javlonbek qizi

Iqtidorli talaba:

(Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta'lim fakulteti talabasi)

Annotatsiya: Ushbu maqola milliy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirish orqali mehnatsevarlikka va iqtisodiy tejamkorlikka o'rgatish, hozirgi kunda global muammolardan biri bo'lmish iqtisodiy jihatdan kam harj buyumlar yaratish va buning yechimini toppish to'g'risida va uni yoshlar ongiga singdirib borish haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so`z:

Har bir millat va elatlarning o'z urf odati bo'lgani kabi, bizning O'zbek halqimizning ham o'z urf-odatlari, milliy o'zligi va an'analari mavjud. Shu o'zimizning milliylikimizdan kelib chiqqan holda o'zimizning kelajagimiz poydevorini quramiz. O'zbek hunarmandlarining qalb qo'ridan yaralgan mato uzoq tarixga ega bo'lgan milliy matomiz atlas ko'plab qimmatbaho matolardanda qadirliroq. O'zbek milliy hunarmandlarining qalb qo'ridan yaralgan buyumlar uzoq tarixga ega bo'lgan milliy qadriyatlarimizni tarannum etish bilan bir qatorda o'quvchilarni mehnatsevarlikka, madaniy meroslarni qadrlashga o'rgatadi.

Yosh avlodni maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiyalash ko'p zamonlardan buyon pedagogikaning asosiy yechilmayotgan muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Avvalo iqtisodiy tarbiya haqida tushunchaga ega bo'lmog'imiz darkor. Iqtisodiy tarbiyalash yosh avlodda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishblarmonlik, iqtisodiy tejamkorlik, iqtisodiy hisob kitob va shu kabi yana bir qator teran fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirish shular jumlasidandir.

XXI-asrga kelib har bir sohada iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilmoqda. Jumladan texnologik ta'lim sohasida ham namoyon bo'lmoqda. Bu borada yosh avlodlar har tomonlama teran fikrlaydigan, iqtisodiy tomondan tejamkorlikga alohida e'tibor qaratmoqligi zarur.

Yoshlarda mehnatsevarlik ruhini tarbiyalash, ularni kasb hunarga yo'naltirish bugungi kunda keng tarqalmoqda. Yoshlar maktab davridayoq

o`z sevgan kasb- hunarlarini mukammal egallashmoqda. Bunda ularning ustozlarini mehnatlari katta ro`l o`ynaydi.

Hech bir ayol-qiz yo`qki milliylik ruhida tarbiya olmagan, milliy liboslarimizni kiymagan. Insonni ustki kiyimi uni qanday millatdanligi, qanday did sohibi ekanligini yaqqol namoyon qilib beradi.

O`zbek halqi azaldan milliy kiyimlar kiyib kamol topishgan. Ular milliy kiyimlarimizdan adras, atlas, beqasam va yana shu kabi bir qator milliy matolarimizdan kiyimlar kiyishgan.

Qadimda kimyob to`nlariga „Oq beqasam“ ishlatilishi asosan ommalashgan. Beqasamdan kamzul, zar to`nlar, ko`rpachalar va yana shu kabi bir qancha buyumlar tayyorlanadi.

O`quvchilarni ijtmoyij tejamkorlikka erishish maqsadida darsda quroqchilik san`ati bilan keng tanishtiriladi. Bunda o`quvchilarga mayda bo`lak marolardan, ya`ni kusoklardan (qoldiqlar) to`plab kerakli buyumlar tayyorlash usulari texnologiyalari o`rgatiladi.



Quroq bu – bitta buyumda rangli va figurasi turlicha bo`lgan gazlama qoldiqlarini birlashirishdir. Bu usul bilan yostiq jildlari, ko`rpa, divan va stul uchun g`iloflar, gilamchalar, shuningdek kiyimlar uchun bezak va to`ldiruvchi detallar tayyorlash mumkin.

Quroq deganda tayyorlash usuli biroz yoki murakkab va shu bilan birga tejamkorlik asosida yaratilgan badiiy ijodkorlik maxsuli tushuniladi.

Quroq bu - mayda bo`laklardan ulab, taxlab, bezak yaratishdir. Shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum bezak hosil qilinadi. Quroq tikish san`ati orqali buyumlar tayyorlash quyidagi ijobiy xususiyatlarni o`ziga mujassam etadi.

- Gazlama tejalishiga olib keladi;

- Ko`p miqdorda chiqindi chiqishini oldini oladi;
- Xom ashyo masalasi juda arzon;
- Yangi ish o`rinlari paydo bo`ladi;
- Bu san`at turi inson psixalogiyasiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi;
- Milliy an`analar davomiyligini ta`minlaydi.

Xulosa o`rnida shuni aytmoqchimanki yoshlar ongida milliyligimizni singdirish bilan bir qatorda oila budjetiga zarar yetkazmaslik yo'llarini o'rgatish orqali, O'zbekiston ravnaqiga oz bo'lsa ham o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4. Umarova F.A. / The Journal Central Asian Social Studies / Volume 1, Issue 1, 2020 й.
5. FA Umarova, XA Umarov / MASOFADAN O'QITISH, INTERNET VA BOSHQA MANBALARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH / Сборники конференций НИЦ Социосфера 2016
6. З.А.Умарова / Эффективность организации самообразования в электронной образовательной медиа среде / International conference on Language and Literature Proceeding